

Xp 1

...Bugun butunlay yangicha sharoitlarda o'sib, kamol topayotgan bizning bolalarimiz, qizlarimiz bundan ham katta yutuqlarni qo'lga kiritishga, albatta, qodir. Shuning uchun ham bunday iste'dodli, navqiron farzandlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz, ularning salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak.

Islom KARIMOV

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:6 (66963)

2014-yil

10-fevral

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

O'ZBEKISTON FARZANDLARI JAHON SPORTI SHOHSUPASIDA

Avval xabar qilinganidek, 28-yanvar kuni Oqsaroyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov raisligida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Majlisda yurtimizda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilganidan buyon o'tgan davrda amalga oshirilgan keng ko'lamlı ishlar, ularning ahamiyati va natijalari haqida atroflicha so'z yuritildi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, bolalikdan sport bilan shug'ullanish inson irodasini toblaydi, aniq maqsad sari intilishga, qiyinchiliklarni bardosh bilan yengishga o'rgatadi, uning qalbida g'alabaga halol intilish va g'urur-iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Shu ma'noda, bugun yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish masalasiga barcha ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan munosib avlodni tarbiyalashning muhim sharti va garovi sifatida yuksak e'tibor qaratilmoqda. Aniq maqsadga yo'naltirilgan bu boradagi ishlar farzandlarimizni sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb qilish orqali jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Zero, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining faoliyati mohiyatan har bir bola, har qaysi oila hayotida sportga mehr uyg'otish orqali jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan.

Jondan aziz bolalarimizni har tomonlama sog'lom, biz boshlagan ishlarning munosib davomchilari, mard va jasur, komil insonlar qilib tarbiyalash bu nafaqat katta baxt, ayni paytda xalqimizning farovonligi, hayot darajasi va sifatini yanada oshirish, O'zbekistonimizning rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallashi, Vatanimizning xalqaro maydondagi obro'e'tiborini yuksaltirishning muhim omilidir. Mana shu

haqiqatni xalqimiz chuqur anglab, har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani, «Farzandlari sog'lom yurt

qudratli bo'lur, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'lur» degan hikmatni yuragidan, qalbidan o'tkazib yashayotgani bugungi kunda o'z mevasini bermoqda.

Mamlakatimizda umummilliy harakatga aylangan bunday ezgu sa'y-harakatlar samarasi yurtimizning barcha hududlaridagi zamonaviy sport inshootlarida shug'ullanayotgan farzandlarimiz xalqaro musobaqalarda yuksak marralarga erishayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining yig'ilishida jamg'arma mablag'lari hisobidan 2013-yilning o'zida turli darajadagi xalqaro musobaqalarda qatnashgan farzandlarimiz tomonidan 124 oltin medal qo'lga kiritilgani alohida e'tirof etildi. Hali maktab partasidayoq dunyoning turli mamlakatlarida tashkil etilayotgan xalqaro turnirlar, jahon va Osiyo chempionatlarida O'zbekiston nomidan maydonga chiqib, dunyoning manaman degan davlatlaridan kelgan tengdoshlari bilan kechadigan murosasiz bellashuvlarda g'alaba qozonish, eng muhimi, shohsupada turib, o'zining sharafiga Vatanning bayrog'i baland ko'tarilayotgandagi hayajonni his etish bu nafaqat farzandlarimizning, otalarning, balki butun O'zbekistonning quvonchidir.



(Davomi 4-, 5-, 8-betlarda)

OLAMNI HAYRON AYLAYAN BOBUR

Vatanimiz tarixida shunday buyuk zotlar o'tganki, ular qoldirgan boy madaniy meros asrlar o'tsa-da, o'z mohiyatini yo'qotmaydi.

Al Xorazmiy, At Termiziy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Cho'lpon, Qodiriy... Bular qatorida yana bir so'nmas, mangu yulduz bor, bu buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. Yaqinda ulug' adibimiz Pirimqul Qodirovning Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlab yozgan «Yulduzli tunlar» romanini o'qib chiqdim. Bugun ushbu asardan olgan taassurotlarimni sizga ham ilindim.



Umarshayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli olamdan o'tgach, uning 12 yoshli o'g'li Bobur Mirzo davlatni boshqarish uchun taxtga o'tirdi. Boburning ayni ot choptirib, tengqurlari bilan quvnashib yurgan chog'lari edi. U otasining o'limidan qattiq aziyat chekdi. Biroq, o'sha davr-u zamonning notinchliklari yosh hukmdorni esankiratib qo'yadi. U har bir ishni qilishdan avval kattalarning maslahatlariga quloq tutdi.

Bobosi Sohibqiron Amir Temur saltanatini tiklash uning katta orzusi edi. Ammo Bobur Mirzoning ko'pgina o'ylagan niyatlari amalga oshmay qoldi. Shunday bo'lsa-da, u Hindistonda ulkan imperiya tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Eng qizig'i, Bobur Hindistondak katta davlatni oz kishilik qo'shini bilan zabt etdi.

Xo'sh, bobokalonimiz bunday yutuqlarga qanday erishdi? Eng avvalo, uning yonida sodiq kishilari — onasi Qutlug' Nigorxonim va opasi Xonzodabegimdek maslahatgo'ylari bor edi. Shuningdek, u bobosi Amir Temur tuzuklarini doim yonida olib yurardi. Bosib olgan shaharlaridagi rastalardan noyob kitoblarni oltin-u javohirlarga almashtirib olgan.

Endi bir o'yab ko'raylik, ko'p o'qigan odam qanday qilib ko'p bilmasligi va ulkan zafarlarga erishmasligi mumkin. Bobomizning yana bir xislati, u buyuk shoir ham edi. Bobur Navoiy bobomizga g'oyibona ixlos qo'ygan va doimo yonida uning suratini olib yurgan.

Ayni damda yurtimiz bo'yab ulug' bobomizning tug'ilgan kunlari keng nishonlanmoqda. Siz-u biz ana shunday buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishimiz, ular qoldirgan madaniy merosni chuqur o'rganishimiz lozim.

Dilshoda JO'RAYEVA,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
1-bosqich talabasi



«VAQOE'»NI O'QIB...

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdim,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdim.
Har kim bu «Vaqoe'»ni o'qir, bilgaykim
Ne ranj-u, ne mehnat-u, ne g'amlar ko'rdim.
Zahiriddin Muhammad BOBUR

*O'qiyman «Vaqoe'» — bosh ko'tarmasdan,
Ko'zim lashkarida yosh ko'tarmasdan.
Kutib olar xomush Shosh ko'tarmasdan,
Ona yurt dilbandi — Muhammad Bobur.*

*Bosgan yo'llaringiz bunchalar uzoq,
Zamin qattiq ekan — osmon-ku yiroq.
Turon zaminida o'chmagan chiroq,
Ona yurt dilbandi — Muhammad Bobur.*

*Askariga berib so'nggi nonini,
Farzand-chun tikkan jism-u jonini.
El aro saqlagan buyuk nomini,
Ona yurt dilbandi — Muhammad Bobur.*

*Elim deb, yurtim deb yonolgan erlar
Ozodlik bayrog'in ko'targan sherlar.
Ularni siz kabi Boburiy derlar,
Ona yurt dilbandi — Muhammad Bobur.*

*Shohtar shoiri siz, shoirlar shohi,
Bu ta'rif kamdayin tuyular gohi.
«Vaqoe'» bosgan yo'l buning guvohi,
Ona yurt dilbandi — Muhammad Bobur.*

*Manguga daxldor bu ko'hna makon,
Unutmas nomingiz, aslo, hech qachon.
Bunga guvoh bo'lar abadiy zamon,
Ona yurt dilbandi — Muhammad Bobur.*

Bahrom AKBAROV

Fevral oyida ikki buyuk bobokalonlarimiz — Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud ayyomlarini keng nishonlaymiz.

Darslik-larimizda ular haqida ko'plab ma'lumotlar bor. Ammo men shoh va shoir, Bobur bobomizning hayotini o'rganishga qiziqib qoldim.

Shuning uchun «Boburnoma» asarini mustaqil o'qishga kirishdim. Shoirning boshidan kechirgan mashaqqatli kunlari, shu bilan birga, atrofidagi ba'zi kishilarning sadoqatsizligi, ayrimlarining esa vafoli do'st ekani meni qattiq ta'sirlantirdi. Bu kitobdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron

AJDODLARGA EHTIROM

xalqlarining tarixi, u dumlari, an'analari, iqlimi

haqida ham ma'lumotlar o'rin olgan. Garchi asarni hali to'laligicha o'qib tugatmagan bo'lsam-da, bu kitobga mehrim tobora ortib bormoqda. Tengdoshlarimga bu asarni o'qishni maslahat bergan bo'lardim.

Mahliyo MAMATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi
24-umumta'lim maktabining
8-«A» sinf o'quvchisi

Kuni kecha poxtaxtimizdagi 123-umumta'lim maktabida «Kamolot» YOZH tuman bo'limi hamda tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi hamkorlikda «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» deb nomlangan tadbir o'tkazildi. Tadbirda maktab o'qituvchilari, o'quvchilar, ota-onalar hamda O'zbekiston xalq artisti Elyor Nosirov, iste'dodli aktrisa Zamira Beshimova ishtirok etdi.



BUYUK YURT FARZANDLARIMIZ

Dastlab maktab direktori Saltanat opa To'laganova so'zga chiqib, bugun mamlakatimizda yoshlarning ta'lim olishi, o'z iqtidorini namoyon etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilyotganini ta'kidladi.

Tadbirda maktabda tashkil etilgan xor jamoasi a'zolari o'zlarining ajoyib kuy-qo'shiqlari bilan yig'ilganlarga xushkayfiyat ulashdi. Ayniqsa, «Ingliz tilini o'rganamiz» to'garagi a'zolarining chet tilida aytgan she'r va qo'shiqlari bayramga o'zgacha fayz kiritdi.

Elyor Nosirov so'zga chiqib, kechada ishtirok etgan iqtidorli, bilimdon o'quvchilarning har bir chiqishidan

Beshimova ijrosidagi diltortar qo'shiqlar ham barchaga birdek manzur bo'ldi. Tadbir yakunida kechada faol



mamnun bo'lganligini aytib, buning uchun maktab o'qituvchilariga alohida minnatdorlik bildirdi. Shu bilan birga, o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdi. Yosh iste'dodli aktrisa Zamira

ishtirok etgan o'quvchilarga tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Muzaffar AHMEDOV

EZGULIK KUYCHISI

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga hissa qo'shgan, yosh avlod qalbida o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kamol toptirishdagi xizmatlari, betakror badiiy asarlari, ibratli ijtimoiy faoliyatini inobatga olib, tanikli shoir Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini munosib nishonlash to'g'risidagi Qarori e'lon qilingan edi. Shu bois, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, mahallalarda shoir ijodiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

she'rlari kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. O'qilishi ravon, sodda, bir-ikki bor qaytarganda, kishiga yod bo'lib qoladigan misralar ortida olam-olam ma'nolar jamlangani kishini hayratga soladi.

Joylarda shoir tavalludi mu-

nosabati bilan qizg'in adabiy uchrashuvlar, kechalar bo'lib o'tmoqda.


Toshkent davlat avtomobil va yo'llar instituti qoshidagi Uch-tepa akademik litseyida ham mazkur sanaga bag'ishlab o'quvchilarning «Tong yulduzi»

tahririyati xodimlari bilan qiziqarli uchrashuvi bo'lib o'tdi. O'quvchilar tadbirga tayyorgarlik ko'rish jarayonida Muhammad Yusuf she'rlaridan yod olish bilan birga, har satrining mazmuni-mohiyatini chuqur anglashga intilganlari yaqqol sezilib turadi.

Ularning shoir hayoti, she'rlari borasidagi bir-biridan qiziq savollari tahririyat xodimlarini ham shoshirib qo'yd.

Eng quvonarlisi, litsey rahbariyati tomonidan Muhammad Yusuf tavallud ayyomini munosib tarzda nishonlash bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, shoir hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan devoriy gazetalar, insholar tanlovi, turli badiiy kechalar o'tkazish belgilangan. Bir so'z bilan aytganda, litseyda adabiyot bayrami davom etadi.

Yusuf ABDULLAYEV



Tanikli shoir Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligi yurtimizda keng miqyosda nishonlanishi barcha adabiyot ixlosmandlarini birdek quvontirib yubordi. Chunki uning go'zal

SALOMATLIK HAQIDAGI FAN

Siz uchun eng qiziqarli dars qaysi? Ona tili, matematika, deysizmi? Juda yaxshi. Ammo shu savol bilan poytaxtimizdagi 34-maktab o'quvchilariga yuzlanganimizda, bugun ularning sevimli darsiga aylanib borayotgan yana bir fanni bilib oldik. Xo'sh, bu qaysi fan, deysizmi? Unday bo'lsa, maktab va o'quvchilar hayotiga oid ushbu maqolani o'qib ko'ring.



Z. NISHONOVA olgan surat

8-«V» sinf o'quvchisi Sunnatillaning aytishicha, barcha fanlar qatori «Sog'lom avlod asoslari» darsi juda qiziqarli ekan. To'g'ri-da, axir sog'lom bo'lib ulg'ayishni qaysi o'quvchi istamaydi, deysiz? Ba'zan biz erinchoqlik qilib, oddiy gigiyena qoidalariga rioya qilmay qo'yishimiz yaxshi emas-da!

– Biroq, biz o'quvchilarga sog'lom turmush tarzini eslatib turadigan o'z fanimiz bor, – deydi 8-sinf o'quvchisi Nargiza Abduqahhorova.

Hozirda ushbu bilim dargohida o'quvchilarga salomatlik saboqlarini berib kelayotgan Hurmat aka Rahimov mavzularni tushunarli va qiziqarli tarzda o'tib, o'quvchilar mehrini qozonib kelmoqdalar. Ustozning dars rejalaridan o'rin olgan «O'smirlardagi fiziologik o'zgarishlar», «Uy hayvonlaridan yuqadigan kasalliklar», «Alkogolizm va tamakining zarari» kabi mavzular sizga ham yaxshi tanish. Zero, yurtimizdagi har bir umumta'lim maktablarida bugun «Sog'lom avlod asoslari» fani dars jadvaliga kiritilgan.

Boshlang'ich sinflarda esa bu fan «Salomatlik darsi» yoki «Sog'lomlashtirish soati» deb yuritiladi.

Qani, eng quyi sinf o'quvchilarining o'z salomatliklari borasidagi ilk bilim va tasavvurlari qanday ekan, ko'raylik-chi? Mana, 1-«D» sinf o'quvchilari ustozlari Muhabbat opa Xo'jaqulovanning savollariga diqqat bilan quloq solib, baravariga qo'l ko'tarishdi. Biz esa Risolat ismli qizaloqning javobini tingladik:

– Gigiyena qoidalariga rioya qilish uchun qo'lni tez-tez sovuq yuvish, tishlarni tozalash, maktabda, ayniqsa, kuz, qish oylarida turli kasalliklardan saqlanish uchun niqob taqib yurishimiz kerak.

Muhabbat opaning, qani bolalar, kim menga salomatlikka oid maqol yoki she'r aytib beradi, degan savollariga esa kichkintoylar bir ovozdan:

«Sog'lom tanda sog' aql,

Deydi bizning bobolar.

Hikmat ko'p bu naqlda,

Amal qiling, bolalar, deya she'r aytib berishdi.

Istardikki, salomatlik sabog'idan har bir o'quvchining olgan bahosi besh bo'l-sin! Sog'lom bo'lmoq insonning o'z harakati, bu boradagi bilimlariga ham bog'liq ekanini unutmang, aziz o'quvchim!

Sayyora QODIROVA



Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi tuman maktablari o'quvchilarining sevimli maskaniga aylangan.

BOLALARNING SEVIMLI MASKANI

Bu yerda bolalarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Tabiatshunoslik, ingliz tili, raqs, bichish-tikish, badiiy havaskorlik to'garaklariga 500 ga yaqin o'quvchi qatnamoqda. Jumladan, «Kompyuter savodxonligi» to'garagi ham o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Muzaffar Hoshimov rahbarlik qilayotgan ushbu to'garakda 30 dan ortiq o'quvchilar zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan to'garakda mashg'ulotlar olib borishmoqda.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Farg'ona viloyati



YOSH RASSOMLAR BELLASHUVI

Maktabimizda tasviriy san'at va rassomlik fani bo'yicha «Qish faslini sevamiz» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Ustozimiz Sunnatilla Usanboyev rahbarligida o'tkazilgan anjumanda oltmishdan ziyod o'quvchilar o'zaro bellashdilar. Bellashuv uch bosqichda o'tkazilib, dastlab o'quvchilar o'zlarini chizgan rasmlarni namoyish etdilar. Ikkinchi bosqichda tasviriy san'atga bag'ishlangan savol-javoblar o'tkazildi. Uchinchi bosqichda esa o'quvchilar amaliy topshiriqlarni bajarib, o'z mahoratlarini ko'rsatishdi.

Ustozlardan iborat hay'at a'zolari tomonidan o'quvchilarning har bir ishi munosib baholab borildi. Natijalarga ko'ra, 6-sinf o'quvchisi Zebo Abdujabborova 1-o'rinni, 8-sinf o'quvchisi Dilnavoz Turg'unboyeva 2-o'rinni, 5-sinf o'quvchisi Shahrizoda Abdullayeva 3-o'rinni egallashdi. Tadbir so'ngida g'oliblar maktab rahbariyati tomonidan munosib taqdirlandilar.

Eng asosiysi esa, unda qatnashgan barcha o'quvchilar tasviriy san'atga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Zuhra MAMATOVA,
Sirdaryo viloyati,
Boyovut tumanidagi
34-maktabning 6-sinf o'quvchisi



O'ZBEKISTON FARZANDLARI

(Davomi. Boshi 1-betda)

Prezidentimiz ana shunday iqtidorli yosh sportchilarni rag'batlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Vatanimiz shuhratini dunyoga taratayotgan o'g'il-qizlarimizning yutuqlari haqida yorqin tasavvur beradigan quyidagi ma'lumot o'zbek sportining jadal rivojlanib borayotganidan, uning kelajagi yorug' ekanidan dalolat beradi.



Quvondiqova Maftuna,
Samarqand shahridagi
36-umumta'lim maktabi
8-sinf o'quvchisi
Badiiy gimnastika bo'yicha
xalqaro turnir (Rossiya)



Ikromova Taxmina,
Samarqand shahridagi
43-umumta'lim maktabi
3-sinf o'quvchisi
Badiiy gimnastika bo'yicha
xalqaro turnir (Rossiya)



Onkes Diana,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 71-umumta'lim maktabi
4-sinf o'quvchisi
Sinxron suzish bo'yicha xalqaro
turnir (Malayziya)



Morozova Aleksandra,
Toshkent shahri Yunusobod
tumanidagi 5-umumta'lim maktabi
5-sinf o'quvchisi
Sinxron suzish bo'yicha xalqaro
turnirlar (Malayziya), (Turkiya)



Miroshnichenko Anastasiya,
Farg'ona shahridagi 2-umumta'lim
maktabi 4-sinf o'quvchisi
Sport gimnastikasi bo'yicha
xalqaro turnir (Fransiya)



Azamov Asadbek,
Farg'ona shahridagi 6-umumta'lim
maktabi 6-sinf o'quvchisi
Sport gimnastikasi bo'yicha
xalqaro turnir (Fransiya)



Toshmatov Muhammadqodir,
Farg'ona shahridagi 10-umumta'lim
maktabi 4-sinf o'quvchisi
Sport gimnastikasi bo'yicha
xalqaro turnir (Fransiya)



Toshmatov Muhammadyusuf,
Farg'ona shahridagi 10-umumta'lim
maktabi 3-sinf o'quvchisi
Sport gimnastikasi bo'yicha
xalqaro turnir (Fransiya)



Babayan Amiran,
Respublika Olimpiya zaxiralari
kolleji 9-sinf o'quvchisi
Trampolin bo'yicha xalqaro
turnir (Qozog'iston)



Babenishev Nikita,
Toshkent shahri Olmazor
tumanidagi 233-umumta'lim maktabi
5-sinf o'quvchisi
Trampolin bo'yicha xalqaro
turnir (Qozog'iston)



Jonibekov Shavkatjon,
Chirchiq Olimpiya zaxiralari
kolleji 9-sinf o'quvchisi
Trampolin bo'yicha xalqaro
turnir (Qozog'iston)



Vohidov Shamsiddin,
Toshkent shahri Hamza tumanidagi
307-umumta'lim maktabi
5-sinf o'quvchisi
Shaxmat bo'yicha
Osiyo chempionati (Shri-Lanka)



Hamrayeva Dilbar,
Toshkent shahri Yunusobod
tumanidagi 105-umumta'lim
maktabi 4-sinf o'quvchisi
Shaxmat bo'yicha Osiyo
chempionati (Shri-Lanka)



Nigmatov Ortiq,
Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi
75-umumta'lim maktabi
7-sinf o'quvchisi
Shaxmat bo'yicha Osiyo chempionati
(Shri-Lanka)



Bozorov Elbek,
Toshkent shahri Yunusobod
tumanidagi 5-umumta'lim maktabi
6-sinf o'quvchisi
Karate bo'yicha jahon chempionati
(Italiya)



Arslanov Tolibjon,
Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi
17-umumta'lim maktabi
6-sinf o'quvchisi
Karate bo'yicha jahon chempionati
(Italiya)



Toshpo'latova Shohsanam,
Andijon mashinasozlik instituti
qoshidagi 2-akademik litsey
1-bosqich o'quvchisi
Suzish bo'yicha xalqaro musobaqalar
(Turkiya)



Tuxsinova Rinata,
Andijon shahridagi tibbiyot kolleji
1-bosqich o'quvchisi
Suzish bo'yicha xalqaro musobaqa
(Turkiya)



Xusenova Alina,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tu-
manidagi 142-umumta'lim maktabi
8-sinf o'quvchisi
Suzish bo'yicha xalqaro musobaqa
(Germaniya)



Tarasenko Aleksey,
Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi
43-umumta'lim maktabi
8-sinf o'quvchisi
Suzish bo'yicha xalqaro musobaqa
(Germaniya)



Usmanov Temurbek,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tu-
manidagi 71-umumta'lim maktabi
8-sinf o'quvchisi
Suzish bo'yicha xalqaro musobaqa
(Germaniya)



Usmanov Amirbek,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tu-
manidagi 71-umumta'lim maktabi
7-sinf o'quvchisi
Suzish bo'yicha xalqaro musobaqa
(Germaniya)



Vitalyeva Anastasiya,
Toshkent shahri Yunusobod
tumanidagi 260-umumta'lim
maktabi 6-sinf o'quvchisi
Suzish bo'yicha xalqaro musobaqa
(Germaniya)



Usmoni Sevara,
Toshkent shahri Olmazor tumanidagi
159-umumta'lim maktabi
6-sinf o'quvchisi
Suzish bo'yicha xalqaro musobaqa
(Germaniya)



Nurgaleyev Artur,
Toshkent shahridagi pedagogika
kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Baydarka va kanoeda eshkak eshish
bo'yicha xalqaro regata (Ukraina)



Gayshinets Yekaterina,
Respublika Olimpiya zaxiralari
kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Baydarka va kanoeda eshkak eshish
bo'yicha xalqaro regata (Ukraina)



Posnikova Lyudmila,
Toshkent shahri Sergeli tumanidagi
2-umumta'lim maktabi
7-sinf o'quvchisi
Baydarka va kanoeda eshkak eshish
bo'yicha xalqaro regata (Ukraina)



Abduraxmanov Maksim,
Toshkent shahri Yunusobod tu-
manidagi 86-umumta'lim maktabi
9-sinf o'quvchisi
Baydarka va kanoeda eshkak eshish
bo'yicha xalqaro regata (Ukraina)



Rahmatova Dilnoza,
Chirchiq Olimpiya zaxiralari
kolleji 9-sinf o'quvchisi
Baydarka va kanoeda eshkak eshish
bo'yicha xalqaro regata (Ukraina)



Guliyev Artur,
Chirchiq Olimpiya zaxiralari
kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Baydarka va kanoeda eshkak eshish
bo'yicha xalqaro regata
(Ukraina)



Ulug'muradov Najmiddin,
Chirchiq Olimpiya zaxiralari
kolleji 9-sinf o'quvchisi
Baydarka va kanoeda eshkak eshish
bo'yicha xalqaro regata (Ukraina)



Zakirova Nilyufar,
Chirchiq Olimpiya zaxiralari kolleji
1-bosqich o'quvchisi
Baydarka va kanoeda eshkak eshish
bo'yicha xalqaro regata (Ukraina)



Mirsaadatov Mirsaidbek,
Namangan viloyatidagi yuridik
kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa
(Malayziya)



Mirxoliqov Bekzod,
Namangan shahridagi 6-umumta'lim
maktabi 9-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa
(Malayziya)



Rahimov Hayotjon,
Namangan Olimpiya zaxiralari
kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa
(Malayziya)

JAHON SPORTI SHOHSUPASIDA



Egamberdiyev Ulug'bek,
Namangan shahridagi to'qimachilik kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Imomaliyev Umarjon,
Namangan shahridagi 33-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Osipyan Zaven,
Namangan shahridagi 49-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Dadayev Aslanbek,
Namangan shahridagi 49-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Qodirxonov Islom,
Namangan shahridagi 58-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Ismoilov Sardor,
Namangan shahridagi 6-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Sobirjonov Jahongir,
Namangan shahridagi 49-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Isametdinov Diyor,
Namangan shahridagi 58-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Abdug'aniyev Baxtiyor,
Namangan shahridagi 49-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Zaxaryans Livon,
Namangan shahridagi 49-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Vaterpol bo'yicha xalqaro musobaqa (Malayziya)



Tarasenko Aleksey,
Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 43-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Suzish bo'yicha 22-xalqaro turnir (Fransiya)



Suyarov Mehridin,
Navoiy shahridagi 6-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Erkin kurash bo'yicha xalqaro turnir (Gruziya)



Rahmonov Abbas,
Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 7-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Erkin kurash bo'yicha xalqaro turnir (Gruziya)



Shamsutdinov Sherzod,
Navoiy shahridagi 8-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Erkin kurash bo'yicha xalqaro turnir (Gruziya)



Ablayeva Kamila,
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi akademik litsey 2-bosqich o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Malneva Xristina,
Respublika estrada-sirk kolleji 2-bosqich o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Abduqayumova Muslimaxon,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 225-umumta'lim maktabi 5-sinf o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Subbotin Dmitriy,
Toshkent tibbiyot kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Sergiyenko Yekaterina,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 187-umumta'lim maktabi 6-sinf o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Ifutina Anastasiya,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 187-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Lebed Anastasiya,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 187-umumta'lim maktabi 6-sinf o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Suxanova Natalya,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 187-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Irjapova Nuriya,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 187-umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Shtondina Sabina,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 187-umumta'lim maktabi 3-sinf o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Sharifjonova Ozoda,
Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 117-umumta'lim maktabi 6-sinf o'quvchisi
Akrobatika bo'yicha xalqaro turnir (Germaniya)



Rahmatov G'aybullojon,
Buxoro Olimpiya xaxiralari kolleji 8-sinf o'quvchisi
Og'ir atletika bo'yicha xalqaro turnir (Gretsiya)



Gayumov Xurshid,
Buxoro Olimpiya xaxiralari kolleji 9-sinf o'quvchisi
Og'ir atletika bo'yicha xalqaro turnir (Gretsiya)



Rahmatov Dilshod,
Buxoro madaniyat kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Og'ir atletika bo'yicha xalqaro turnir (Gretsiya)



Piskunova Anna,
Toshkent viloyati Olmaliq shahridagi 15-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Yusupova Fotimaxon,
Andijon Olimpiya xaxiralari kolleji 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Erkinova Gulsanam,
Andijon Olimpiya xaxiralari kolleji 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Safarova Darya,
Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 263-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Nikolskaya Sabina,
Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 263-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Razzoqbergenova Sevara,
Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi pedagogika kolleji 1-bosqich o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Muxidillayeva Sarvinoz,
Toshkent viloyati Olmaliq shahridagi 14-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Qodirjonova Hilolaxon,
Andijon Olimpiya xaxiralari kolleji 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Imanova Vasila,
Toshkent viloyati Olmaliq shahridagi 4-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Kaliboyeva Madina,
Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 127-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Allayorova Zahro,
Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 319-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi
Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)

(Davomi 8-betda)



ONAJON

Onajonim oyimsiz,
Go'zallikka boyimsiz.
Nonlari shirmoyimsiz,
So'zlari muloyimsiz.
Erkalaysiz, qizim, deb,
Mening yorug' yuzim, deb.
Yuzingiz yorug' qilay,
Ona, dardingiz olay.
Ko'zingizga nur bo'lib,
Yo'lingizni yoritay.

Sayyora FAZLIDDINOVA,
Jizzax shahridagi 1-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

KAMOLIM KO'RIB YURING

Besh yoshimda qo'limga,
Tutdingiz qog'oz, qalam.
Borliqqa oshno etib,
Tanidingiz keng olam.
Birinchi ustozimsiz,
Buvijonim, buvijon.

Yutug' imdan shodlanib,
Kamolim ko'rib yuring.
Duogo'yimiz bo'lib,
Dunyo turguncha turing.
Sizga mehrim bir jahon,
Buvijonim, buvijon.

Aziza AHMEDOVA,
Toshkent shahridagi 178-DIUMNING 4-«V» sinf o'quvchisi



BUVIJONIMGAGA

Har ishda maslahatdosh,
Menga eng yaqin sirdosh,
Doim bo'lar ko'makdosh,
Buvijonim o'zlari.

Maktabdan uyga kelsam,
Keldingmi, qizim, derlar.
Omon bo'lsin bu boshing,
Sog'-omon yurgin, derlar.
Farishtali yuzidan,
Nur yog'ilar doimo.
Erkanib quchsam gar,
Kulib qilgaylar duo.

Baxtimizga doimo,
Omon bo'ling, buvijon.
Olloh sizni asrasin,
Dard ko'rmangiz hech qachon.

Zarnigor RUSTAMALIYEVA,
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 32-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

QORPARCHA

Ko'kdan tushar qorparcha,
Oq parchamas, zar parcha.
U yaralib osmonda,
Yerga to'shar gilamcha.

Bir-birini quvlashib,
Shoshib tushar qorparcha.
Bo'yar yerni oq rangga,
Tuproq bilan yor parcha.

Nazirjon TOSHEMIROV,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 4-umumta'lim maktabning 3-sinf o'quvchisi

Iqtidorli, izlanuvchan o'g'il-qizlar nafaqat oilasi, ota-onasi, ustozlari, balki ular tahsil olayotgan bilim maskanlarining ham faxri, iftixori sanaladi. Bu borada Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahridagi 25-umumta'lim maktabiga havas qilsa arziydi. Chunki mazkur ta'lim dargohida iqtidorli o'quvchilar juda ko'p.

TO'LIB-TOSHIB OQISHLARI BOR

Maktabning 6-«G» sinf o'quvchisi «Kamalak» bolalar tashkiloti sardori Sitorabonu Abdumtaliboyeva ana sifatida ham faoliyat yuritib, shunday yosh iste'dodlardan biri. tashkilotchiligi, tashabbuskorligi bilan o'z

BOLALIK

Do'stim, bolalik bu beg'ubor damlar,
Umrning betakror onlari asli.
Har lahzasi, har bir oni g'animat,
U bizga berilgan imkonlar fasli.

Uning har onini g'animat bilib,
Barkamol ulg'ayib, kuchga to'laylik.
Ajdodlarga munosib zo'r avlod bo'lib,
Yurt koriga yarovchi farzand bo'laylik!

Murodjon MUSAYEV

B o g ' c h a
y o s h i d a n o q
t a s v i r i y s a n ' a t g a
m e h r q o ' y g a n b u
q i z i m i z a ' l o
o ' q i s h i, j a m o a t
i s h l a r i d a g i
f a o l l i g i b i l a n
b a r c h a g a i b r a t
b o ' l m o q d a .
N a f a q a t
m a k t a b, b a l k i
t u m a n, v i l o y a t
m i q y o s i d a o ' t k a z i l a d i g a n k o ' p l a b
t a d b i r l a r d a h a m o ' z i j o d i y i s h l a r i b i l a n
i s h t i r o k e t i b, u s t o z l a r i i s h o n c h i n i o q l a b
k e l m o q d a . « L o c h i n » o r o m g o h i d a

o r t i d a n
t e n g d o s h l a r i n i
e r g a s h t i r a
o l i s h d e k
f a z i l a t l a r i n i
n a m o y o n q i l i b
k e l m o q d a .
U n i n g
t e n g d o s h i 6-«V»
s i n f o ' q u v c h i s i
M u r o d j o n
M u s a y e v e s a
a d a b i y o t, s a n ' a t,
s h e ' r i y a t s h a y d o s i . U h a m m a k t a b n i n g
a ' l o c h i, f a o l o ' q u v c h i l a r i d a n . T a d b i r l a r d a
o ' z i j o d n a m u n a l a r i b i l a n i s h t i r o k e t a d i .
M a r g ' i l o n s h a h r i d a g i 10-m u s i q a
m a k t a b n i n g «R u b o b» y o ' n a l i s h i
b o ' l i m i d a u s t o z l a r i d a n o ' r g a n g a n



«Vatan, do'stlik va xalqparvarlik uchun!» shiori ostida o'tgan 14-bolalar anjumanida maktab sardori sifatida ishtirok etib, bilim maskani nomini ko'pchilikka tanitib keldi.

Ayni kunlarda maktab qoshidagi to'garaklarda ustozlari ko'magida mahoratini oshirib kelayotgan Sitorabonu

diltortar kuylari bilan kecha va bayramlarga fayz kiritadi...

Nazarimizda, necha-necha mashhur iste'dodlar kamol topgan Marg'ilonida yana ikki jajji buloq ko'z ochdi. Ularning hali to'lib-toshib, mavjlanib oqishlari bor.

YULDUZZON



QOPLON

Qish. Tashqarida izg'irin shamol esib, pag'a-pag'a qor yog'ardi. Kumush qishning ham o'z ziynati bor. Deraza yonida tabiatni kuzata turib, o'tgan yili qishda bo'lib o'tgan bir voqea yodimga tushib ketdi.

Bir kuni tushlikdan so'ng bobom, qani, o'tlaninglar, ammingizni ko'rib kelamiz, deb qoldilar. Onam tezda meva-cheva, qand-qurs tugib berdilar. Men,

akam va bobom yo'lga tushdik. Qishloq oralab, Sheramat akaning o'rikzoridan o'tib, g'ira-shirada ammamnigiga kirib bordik.

– Keling, keling, dadajon, qaysi shamol uchirdi? Voy mening qaqajonlarim-ey, sizlarni buvangiz olib kelmasalar, o'zingiz xabar olay demaysiz, – ammam aylanib-o'rgilib bag'riga bosib, bizlar bilan ko'rishdi.

Mehmonxonadagi yangi cho'g' solingan issiqqina sandal atrofida ancha payt gurunglashib o'tirdik. Vaqt allamahal bo'lganda, bobom ketamizga tushib qoldilar. Ammam, yotib-erta bilan ketarsizlar, desalar ham ko'nmay, uyga qaytadigan bo'ldik. Birozgina yurgan

edik hamki, oldimizdan kattakon it chiqib qolsa bo'ladimi?! Yo'limizni to'sib, akillagancha sheriklarini chaqira boshladi. Akam ikkimizning qo'rquvimiz oshib boryapti. Bobojonim, qo'rqmanglar, aks holda, hamla qiladi, deya tasalli berdi. Zumda atrofimizni bir gala itlar o'rab oldi. Chetlab o'tishning hech imkoni yo'q. Diqqat qilib qaragam, ular orasida bittasi akam Akrom akaga bergan «Qoplon»ga o'xshaydi. «Qoplon, Qoplon» deya chaqira boshladim. U ham meni tanidi, shekilli, vovullab itlarni hayday boshladi. Biroq, uchto'rtta katta-katta itlar negadir ketmadi, aksincha, g'ajib tashlagudek bo'lib Qoplonga tashlanishdi. Ayovsiz jangda bizning «qahramon» yutib chiqdi-yu, ammo juda holsizlanib qoldi. Men-uning oppoq yunglaridan ohista silab qo'ydim. Uning yordami bilan eson-omon uyga yetib olgandik...

Shulami eslab turganimda, oyijonim chaqirib qoldilar: – Umida, chiqaqol, qizim, amming keldilar...

Umida SATTOROVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi



ISHTIYOQ KUCHLI BO'LSA...

Mazkur yilimizning «Sog'lom bola yili» deya nomlanishi o'quvchilarning sport bilan yanada yaqinroq do'stlashishlariga turki bo'ldi. Axir «Salomatlik – tuman boylik» deb bejizga aytilmagan-da. Aziza Bobojonova sportning gimnastika turi bilan muntazam shug'ullanadi, voleybol o'ynashni yoqtiradi. Eng sevgan darslaridan biri jismoniy tarbiya. Sog'lom, tetik bo'lish, rejada belgilangan hamma ishlarga ulgurish uchun jismoniy mashqlar bajarish juda muhim-da. Uning sevimli mashg'ulotlari badiiy kitob o'qish, rasm chizish, shuningdek, she'rilar mashq qilish. Aziza darsdan bo'sh vaqtlarida «G'uncha», «Gulxan» jurnallari, «Tong yulduzi» gazetasini muntazam o'qib boradi.

Undan oxirgi o'qigan badiiy kitobingiz qaysi, deb so'raganimizda, «Oltin beshik» o'zbek xalq ertaklari to'plami, «Oltin kovushcha» jahon xalqlari ertaklari, deya javob berdi. Iqtidorli qizaloq o'qigan ertaklari asosida rasmlar ham chizarkan.

Uning chizgan rasmlaridan birini e'tiboringizga havola qilyapmiz.



BONU tayyorladi

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 191-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Hakima opa Qosimova o'quvchilarida o'z faniga katta qiziqish uyg'otgan ustozlardan hisoblanadi. Uning shogirdlaridan biri 6-«A» sinf o'quvchisi Aziza Bobojonova yaqinda ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuv»ida qatnashib, tuman bosqichida faxrli 3-o'rinni egalladi.

Sinfimizda Azizbek degan bola o'qiydi. Avvallari bu sinfdoshim a'loch, uyga berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajaradigan, tengdoshlariga yaxshi xislatlari bilan o'rnak bo'ladigan o'quvchi edi.

SABOQ



Yaqinda unga ota-onasi qimmatbaho uyalı telefon olib berdi-yu, butkul o'zgarib qoldi. Darslarga kechikib keladigan, ustozlarning o'g'itlariga bepisandlik bilan qaraydigan odat chiqardi. Hatto dars paytida ham qo'l telefonini partasi ostiga berkitib, bir nimalarni tomosha qilayotgan bo'ladi.

Bir kuni Azizbek maktabdan qaytayotib, qo'l telefonini yo'qotib qo'yibdi. Bu noxush hodisadan so'ng u bir necha kun betob bo'lib yotdi. Bu voqeadan xabar topgan sinf rahbarimiz Shoira opa majlis o'tkazib, Azizbekning ota-onasiga qilgan ishi chakki bo'lganini, farzandiga olib berilgan qo'l telefoni

uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatganini aytib o'tdilar. Ular qilgan ishlaridan afsuslandilar.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
193-umumta'lim maktabining
6-«D» sinf o'quvchisi


Bu qiziq!

ELEKTR BALIQLAR

Aziz bolajonlar! Siz baliqlar va ularning ko'plab turlari haqida ma'lumotlarga egasiz. Ammo, bugun biz sizlar aytib o'tmoqchi bo'lganimiz elektr baliqlardir.

O'zidan elektr tokini ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan bunday baliqlar besh guruhga bo'linadi: dengiz munajjimi, gimnax (gumnarchus), elektr laqqa, elektr skat, elektr ilonbaliq.

Bu laqqa suv jonivorlari xordalilar turiga mansub bo'lib, suvning eng pastki qismida hayot kechiradi. Ularni, asosan, Afrikaning tropik va subtropik mintaqalaridagi suv havzalarida uchratish mumkin. Ulardan elektr laqqa o'ta kuchli elektr quvvatli (zaryadli) baliqlar turkumiga mansub. O'rtacha uzunligi 50 sm, eng yirigining uzunligi esa 1 metrgacha bo'ladi. Vazni 23 kg, ni tashkil qiladi. Tanasi ichiga tortilgan bo'lib, boshida uch juft mo'ylovi bilan o'ljasini falaj qiladi. Ko'zlari kichik,



Elektr laqqaning asosiy xislatlaridan biri uning barcha a'zolarida elektr tokining mavjudligidir. Bu elektr toki uning terisi ostida bo'ladi. U o'zidan elektr tokini eng ko'p chiqarganda, 350 volt ajratadi. Eng yiriklari 450 voltgacha quvvatni chiqarishi mumkin. Bu jonivorda 2 millionga yaqin elektr qalqonlar mavjud. Eng katta asab hujayrasidan orqa miyaga elektr toki o'tib turadi. Bilasizmi, bolajonlar bu baliq hatto o'ljasini ham tok bilan urib qo'lga tushiradi. Shuningdek, uning atrofidagi elektr qutblar suvga ham ta'sir ko'rsatib, atrofini kislorod bilan to'yintirarkan.



yorqin va qoramtir bo'ladi. Tanasining rangi esa ola-bula, ya'ni beli qora-jigarrang bo'lib, qora dog'lar bilan qoplangan.

Dunyo ana shunday mo'jizalarga to'la. Ular haqida o'qiganingizda, sizda ham yaratish, izlanish ishtiyoqi tug'ilsa, ne ajab!

Internet manbalari asosida
Manzura UBAYDULLAYEVA
tayyorladi

Bo'sh o'tirmay, bosh qutur!

1	Z									
2	I									
3	N									
4	A									
5	M									
6	A									
7	Z									
8	I									
9	N									
10	A									

KROSSVORD

- Harf.
- Ignadan o'tkaziladi.
- Aziz ne'mat.
- Bol.
- Xamirli taom.
- G'azal mulkining sultoni (ismi).
- Muqaddas joyga sig'inish.
- Oliy ta'lim dargohi.
- G'oyat darajada.
- Yer sharining janubiy qutb qismi.

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

10-fevral 2014

O'ZBEKISTON FARZANDLARI JAHON SPORTI SHOHSUPASIDA

(Davomi. Boshi 1-, 4-, 5-betlarda)



Abdulhamidova Surayyoxon, Andijon Olimpiya zaxiralari kolleji 1-bosqich o'quvchisi Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Safarova Shohsanam, Samarqand shahridagi maishiy xizmat kolleji 1-bosqich o'quvchisi Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Najmedinova Gulmira, Andijon Olimpiya zaxiralari kolleji 1-bosqich o'quvchisi Gandbol bo'yicha xalqaro turnir (Italiya)



Shomansurova Xadicha, Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabi 4-sinf o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Garusova Sofiya, Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 60-umumta'lim maktabi 6-sinf o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Toshxo'jayeva Xonzodaxon, Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 142-umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Xayriddinova Muxlisaxon, Toshkent shahridagi dizayn kolleji 2-bosqich o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Shomaxsudova Laziza, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Shomaxsudova Nigora, Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 235-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Yo'ldosheva Gulsanam, Respublika badiiy kolleji 2-bosqich o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Morozova Anastasiya, Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 246-umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Hakimova Xurshida, Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 122-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi Sinxron suzish bo'yicha xalqaro turnir (Turkiya)



Nurillayev Kemran, Samarqand shahridagi 10-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi Dzyudo bo'yicha Osiyo chempionati (Xitoy)



Tursunov Suhrob, Chirchiq Olimpiya zaxiralari kolleji 3-bosqich o'quvchisi Dzyudo bo'yicha Osiyo chempionati (Xitoy)



Rahimov Sherzodjon, Farg'ona Olimpiya zaxiralari kolleji 1-bosqich o'quvchisi Belbog'li kurash bo'yicha jahon birinchiligi (Rossiya)



Chadin Roman, Sirdaryo viloyati Guliston kompyuter va axborot texnologiyalari kolleji 2-bosqich o'quvchisi Jet-kun-do bo'yicha Osiyo chempionati (Qozog'iston)



Hamdamov Javlonbek, Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 1-akademik litsey 1-bosqich o'quvchisi Jet-kun-do bo'yicha Osiyo chempionati (Qozog'iston)



Azizov Shahzod, Surxondaryo viloyati Termiz shahri oziq-ovqat sanoati kolleji 1-bosqich o'quvchisi Universal jang bo'yicha jahon chempionati (Rossiya)



Anorboyev Jasur, Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani kasb-hunar kolleji 2-bosqich o'quvchisi Universal jang bo'yicha jahon chempionati (Rossiya)



O'rolov Miraziz, Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 4-akademik litsey o'quvchisi Universal jang bo'yicha jahon chempionati (Rossiya)



Ergashev Sirojiddin, Toshkent viloyati Qibray tumani agrosanoat kolleji 2-bosqich o'quvchisi Universal jang bo'yicha jahon chempionati (Rossiya)



Aminov Ravshanbek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 32-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Imamatdinov Atabek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli pedagogika kolleji 1-bosqich o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Jumabayev Orazbay, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli pedagogika kolleji 2-bosqich o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Yeshimbetov Xajmuxan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus Olimpiya zaxiralari kolleji 3-bosqich o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



O'temisov Timur, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus transport kolleji 3-bosqich o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Abdullayev Timur, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli pedagogika kolleji 2-bosqich o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Babajanov Ilhom, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 32-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Idirisov Nursulton, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus Olimpiya zaxiralari kolleji 9-sinf o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Avezbayev O'rinbosar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli pedagogika kolleji 2-bosqich o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Jubatov Qalibek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus transport kolleji 2-bosqich o'quvchisi Boks bo'yicha xalqaro turnir (Qoraqalpog'iston Respublikasi)



Saidova Sabohat, Xorazm viloyati Xonqa sport-pedagogika kolleji 2-bosqich o'quvchisi Dzyudo bo'yicha xalqaro turnir (O'zbekiston)



Abdullayev G'ulomjon, Xorazm viloyati Urganch shahridagi 9-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi Erkin kurash bo'yicha 9-xalqaro turnir (Rossiya)



G'aniyeva Oynoz, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi akademik litsey 3-bosqich o'quvchisi Taekvando bo'yicha Qozog'iston ochiq birinchiligi (Qozog'iston)



Akbarov Ikromjon, Toshkent shahridagi iqtisodiyot kolleji 1-bosqich o'quvchisi Qo'l jangi bo'yicha jahon birinchiligi (Rossiya)



Sadriddin Sirojiddin, Toshkent shahridagi oliy maktabi kolleji 3-bosqich o'quvchisi Qo'l jangi bo'yicha jahon birinchiligi (Rossiya)